

ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOIIY-SIYOSIY QARASHLARI

Masharipova Gularam Kamilovna - Alfraganus university professori, falsafa

fanlari doktori, telefon: 90-930-95-82, ORSID: 0009-0007-0788-2359

e-mail: masharipova.gularam2006@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu ilmiy ishda Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari har tomonlama tahlil qilinadi. Beruniy o'z asarlarida jamiyatning shakllanishi, uning taraqqiyotida ilm-fan, ma'rifat va axloqning o'rnini alohida ta'kidlaydi. U adolatli jamiyat barpo etishda davlat boshqaruvining oqilona va xalq manfaatlariga xizmat qilishi zarurligini ilgari suradi. Shuningdek, olim inson huquqlari, shaxs erkinligi va ijtimoiy tenglik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi globallashuv sharoitida ham dolzarb ahamiyatga ega. Uning adolat, bag'rikenglik va ilmga tayanish kabi g'oyalari zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** Abu Rayhon Beruniy, ijtimoiy-siyosiy qarashlar, adolat, davlat boshqaruvi, inson huquqlari, bag'rikenglik, taraqqiyot.*

***Аннотация.** В данной научной работе подробно рассматриваются социально-политические взгляды Абу Райхон Беруни. Анализируются его идеи о формировании общества и роли науки, образования и нравственности в его развитии. Беруни подчеркивает необходимость справедливого государственного управления, основанного на служении интересам народа. Особое внимание уделяется вопросам прав человека, личной свободы и социальной справедливости. Результаты исследования показывают, что социально-политические взгляды Беруни сохраняют свою актуальность и в современном мире. Его идеи о справедливости, толерантности и приоритете науки могут служить теоретической основой для развития современного общества.*

***Ключевые слова:** социально-политические взгляды, справедливость, государственное управление, права человека, толерантность, развитие.*

Abstract. *This study provides a comprehensive analysis of the socio-political views of Abu Rayhan al-Biruni. It examines his ideas on the formation of society and highlights the role of science, education, and ethics in social development. Al-Biruni emphasizes the importance of just governance that serves the interests of the people. He also addresses issues such as human rights, individual freedom, and social equality. The findings demonstrate that al-Biruni's socio-political ideas remain highly relevant in the modern globalized world. His concepts of justice, tolerance, and reliance on science provide an important theoretical foundation for contemporary social development.*

Keywords: *socio-political views, justice, governance, human rights, tolerance, development.*

Kirish. Mamlakatimizda ajdodlar merosidagi olam va odam, tabiat, ijtimoiy hayot, shaxs ma'naviyati, ta'lim va tarbiyaga oid qarashlarni tadqiq etish, ularning zamon ruhiga mos g'oyalaridan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashda foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim» [1]. Shu jihatdan olganda, Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarining umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan falsafiy, tabiiy-ilmiy qarashlarini, inson kamoloti uchun konstruktiv ahamiyatga ega bo'lgan ekzistensial g'oyalarini har tomonlama ilmiy-nazariy tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

B.Abduhalimovning «Hoji Xalifa Abu Rayhon Beruniy haqida» maqolasida Hoji Xalifaning «Kashf az-zunun» asarida Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar to'la o'rganilgan. Jumladan, ushbu kitobda uning ismi 24 marta qayd etilgan, ilmiy asarlari – (آثار الباقية) «Osor al-boqiya», (الاستشهاد باختلاف الأرساد) «al-Irshod fi ahkom an-nujum», (ارشاد في أحكام النجوم)

Istishhod bi ixtilof al-arsod», (الاستعاب)»al-Isti'ob», (تجريد الشعثات) «Tajrid ash-shu'aot», (التفهيم)»at-Tafhim», (كتاب العمل بالاسترلاب)»Kitob al-amal bil usturlob», (الزيج) «Zij», (قانون مسعودي) «Qonuni Mas'udiy», (منيرالاجية) «Mineralogiya» va boshqalar xususida ma'lumotlar borligi aytiladi.

A.Habibullayev to'planning sakkizinchi sonida chop etgan «Oksfordda Abu Rayhon Beruniy asarlari» nomli maqola tarixnavislikka oid bo'lib, unda Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti tarkibidagi Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan Abu Rayhon Beruniy qalamiga tegishli asarlar haqida axborot berilgan; ettita asarining to'qqizta qo'lyozmasi borligi aytilgan va ularning qisqa tavsifi ilova qilingan. Ular qatoriga «Qonuni Mas'udiy», «Kitob fi isti'ob al-vujuh al-mumkina fi san'at al-asturlob» (كتاب في استرلاب الوجوه الممكنة في صناعة (كتاب في استرلاب)»Asturlob yasashning mumkin bo'lgan usullarini qamrab oluvchi kitob»), «Kitob ad-durar fi sath al-ukar» (كتاب الدرر في سطح العكر)»Er sathi haqida hikoya qiluvchi durlar kitobi»), «Maqolatu fi sayr sahmay as-sa'oda va-l-g'ayb» (مقالات في سير سحمي السعادة و الغيب) (Maqola»), munajjimlikka oid: «Kitob nuzhat an-nufus va-l-afkor fi xavoss al-mavolid as-salos al-ma'dan va-n-nabot va-l-ahjor» (كتاب نزهة النفوس والأفكار في حواس (كتاب نزهة النفوس والأفكار في حواس)»Uchta narsa – metall, o'simlik, toshlarning xususiyatlari haqida fikr va ko'ngillarga rohat baxsh etuvchi kitob»), mineralogiyaga oid «Tashil at-tashih al-asturlob val amal bi murakkabatihi min ash-shimol val janub» (تسحيل التصحيح الاسترلاب والعمل بمركبته من الشمال (تسحيل التصحيح الاسترلاب والعمل بمركبته من الشمال)»Asturlobni to'g'irlashni osonlashtirish, shimoliy va janubiy turlardan tarkib topgan asturloblar bilan ishlash»); «Kitob at-tafhim» (كتاب التفهيم) lar kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik tamoyillari hamda qiyoslash, komparativistika, umumlashtirish, dialektik va germevntik tahlil usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Abu Rayhon Beruniy qomusiy olim o'laroq siyosiy, huquqiy masalalar bilan ham qiziqqan va tom ma'noda o'z davrida davlat va boshqaruv masalalarida o'ta bilimdon shaxsdir. U davlat, huquq paydo bo'lishi va ularning vazifalariga oid masalalarni Abu Nasr

Forobiy kabi tabiiy ehtiyojlardan qidiradi. Uning g'oyalarida dispotiyaga qarshilik hissi sezilib turadi va odamlar ijtimoiy adolatli tartib-qoida o'rnatish uchun shartnoma asosida davlatga birlashadilar, - deydi Abu Rayhon.

Ma'rifatli shohlar ulug'lanar ekan, uning fikriga ko'ra, jamiyat podshohga xizmat qilmay, podshoh jamiyatga xizmat qilishi kerak. «Idora qilish va boshqarishning mohiyati balki boshliq zolimlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol-mulkini himoya qilish va qo'riqlash yo'lida badan charchashidan iborat». Uning siyosiy qarashlarida davlat boshlig'i tabiatan boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Davlat boshlig'i tabiatan boshqarish qobiliyatiga, o'z fikri va qarorlarida qat'iylikka ega bo'lishi, davlatning muhim masalalarini hal etishda donishmandlar qonunlariga amal qilishi lozim. Buni Arastuning Iskandarga nasihati hamda Iskandarning unga amal qilganiga oid rivoyat misolida tushuntirar ekan, «Odil hokimning vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchli va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishdan iboratdir», deydi [1, 73-b.].

Buning uchun esa davlat boshlig'i davlatning muhim masalalarini hal etishda donishmandlarning qonunlariga amal qilishi lozim. Bunda Abu Rayhon Beruniy Aristotelning Iskandarga qilgan nasihatlarini, Iskandarning ularga amal qilganini misol qiladi. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, «odil hokimning vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishdan iboratdir». Abu Rayhon Beruniy podshohlik merosga aylanganini ko'rib, davlat nasldan-naslga o'tib turishi qonun-qoidasiga qarab, insonning jamiyatda tutgan o'rni naslning qadimiyligi, avlod-ajdodlarning xizmatlari bilan belgilanishiga qarshi chiqadi. Bu haqda: «Kimki o'zining marhum qarindosh-urug'i va buvalari orqali mansabga (podshohlik yoki hokimlikka) erishaman desa, uning o'zi marhumdir, bunday avlodlar barhayotdir», deydi. Uning fikricha, davlatga rahbarlik qilish o'z qobiliyatiga bog'liq bo'ladi, u yoki bu davlat arbobining hokimiyatni boshqarishga yaroqliligi uning avlodlari qobiliyatidan bo'lmaydi, degan g'oyani ilgari suradi. Shu o'rinda, yana odamlarning rangi, tili, tashqi

ko'rinishining turlicha bo'lishi faqat naslga bog'liq bo'lmasdan, balki ular yashayotgan muhitga, havoga, suvga ham bog'liq. Uning fikricha, turlicha davlatlarning mavjudligi, turli hukmdorlarning bo'lishi ham yuqoridagilarga bog'liqligini ta'kidlaydi [2, 235-b.].

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Abu Rayhon Beruniyning siyosiy qarashlarida davlatni boshqarish uchun xalq tomonidan saylab qo'yiladigan hokim odil va xalqparvar bo'lishi g'oyasi ilgari suriladi [2, 237-b.]. Ushbu g'oya «Mineralogiya» asarida bir hikoyat misolida tushuntiriladi: «U yerda o'lkani idora qilish a'yonlari va yer egalari o'rtasida navbatma-navbat bir-biriga o'tib turarmish, kimga navbat kelsa, o'sha uch oy hukm yuritarmish. Muddat tugashi bilan o'z-o'zidan o'lkani idora qilish amalidan tushib minnatdorchilik uchun sadaqa beradi va o'z ahli orasiga qaytadi, u bilan go'yo kishandan bo'shaganday xursand bo'lar va o'z ishi bilan band bo'ladi. Bu shuning uchunki, davlatni idora qilish rohatdan mahrum bo'lish, degan so'z. Bunda u o'sha joydagi ezuvchilarni eziluvchilarga nisbatan adolatli qilaman, deb tinkasini quritish deganidir. Bu esa o'z qo'li ostidagilardan va ularning o'zlarini himoya qilish uchun urush tadbirini tayyorlash borasida o'z jonini qiynashdir...» [2, 237-b.].

Abu Rayhon Beruniy ma'naviyat va ma'rifat haqidagi ta'limotida tafakkur, odob-axloq, aql-idrok, ta'lim-tarbiya, mehnat, inson hayoti va ijtimoiy mohiyatini belgilaydi, deydi. U jamiyat yuzaga kelishida o'zaro yordam, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy aloqa va munosabatlar asosida birgalikda harakat qilish singari muhim omillar asosiy rol o'ynashini, o'rta asrchilik sharoitidayoq isbotlab bergan edi. Jamiyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi, insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishi kishilarning hamkorlikda faoliyat yuritish zaruratidan kelib chiqqanligi Abu Rayhon Beruniy ta'limotida tez-tez eslatiladi. Muayyan vazifalarni hamkorlikda bajarish zaruriyati inson faoliyatining mavjud bo'lish asosidir. «Insonning qadr-qimmatini va eng asosiy vazifasi o'z manfaatini a'lo darajada bajarishdan iborat, shu uchun ham bu o'rinda mehnat qadrlanadi, inson o'z xohishiga mehnat tufayli yuqori pog'onalariga erishadi», deb yozadi Abu Rayhon Beruniy «Geodeziya» asarida [3, 132-b.].

Mehnat – inson ma’naviy-axloqiy kamoloti asosi. Mehnat orqali inson o‘zi istagan narsasiga erishadi, mehnatsizlik tufayli hayotda shod-xurramlik yo‘qligi tushuntirib beriladi. Bu g‘oya Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta’limotida, xususan, ma’naviyat-ma’rifat haqidagi fikr-mulohazalarida bosh masala mohiyat kasb etadi. Abu Rayhon Beruniyning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari bilan bog‘liq ta’limotida odob-axloq, mehnat, kasb-hunar, ta’lim-tarbiya, ilm-ma’rifat uzviy mushtaraklikda, dialektik bir butunlikda tahlil va talqin etiladi. Inson amaliy faoliyatining biron-bir sohasi ularning bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshmaydi, deb yozgani bejiz emas. Rostlik, odillik, adolat — bular Beruniy go‘zal odob-axloq, yuksak ma’naviyati belgisidir. «O‘zingni zararing hisobiga bo‘lsa-da, haqiqatdan yuz o‘girma, rost gapir, har bir narsaga odilona va xolisona yondosh», deb ta’lim beradi, o‘zi mazkur g‘oya va ta’limotlarga bir umr sodiqlikning ibrat-namunasiga aylanadi.

Abu Rayhon Beruniyning ma’naviyat va ma’rifat haqidagi ta’limoti, ilm-fan, birodarlik, madaniyat, samimiyat, adolat, tenglik, insonparvarlik, yaxshilik, to‘g‘rilik kabi umuminsoniy g‘oyalari yangicha milliy tafakkur tarbiyasi shakllanishida axloqiy-etik, ma’naviy-falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Allomaning fikrlari, bir tomondan, Markaziy Osiyo ilg‘or an‘analarini ijodiy rivojlantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Beruniyning yetukligi tafakkur doirasining kengligidan dalolat beradi. U tomonidan «sabablarning sababi» inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo‘yilishi diqqatga sazovordir. «Qadimgi tarixlarning eng qadimgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir» [1, 50-b.]. Bu o‘rinda Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqida ratsionalizm pozitsiyasida turganini ko‘ramiz. Beruniy insonlar o‘rtasida tafovut borligi haqida gapirar ekan, u faqat tashqi farqlar to‘g‘risida fikr yuritgan. Lekin kishilarning ichki tuzilishi va tashkil topishi, uning fikricha, barchada umumiydir. U inson bilan maymun o‘rtasida o‘xshashlik borligini qayd etadi. U «Hindiston» asarida musulmonlar bilan hindlarning urf-odatlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, ular geografik sharoitlarga bog‘liq, degan fikrni ilgari surdi. Geografik omilning rolini tahlil qilishni davom ettirib, hatto tillarning turlichaligi

ham geografik sharoitlarga bog‘liq deb qaraydi. «Tillar turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoq turishidir».

Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy hayot o‘ziga xos “shartnoma” asosida tuzilishini e’tirof etadi: «Inson o‘z ehtiyojlarini o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini tushunib, anglay boshlaydi. Shu uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi “shartnoma” tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir». Bu fikrni davom ettirib, «insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishdan iborat: shu uchun insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi, inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishadi», - deb yozgan. Abu Rayhon Beruniy o‘z davrida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos soldi, uning turli sohalarida o‘z davri uchun taajjubga soluvchi shunday fikr va ilmiy farazlarni ilgari surdiki, ular bir necha asrlardan so‘ng Yevropa ilmida o‘z isbotini topdi. Beruniy o‘rta asr sharoitida haqiqiy tajribaga, kuzatish, eksperimentga asoslanuvchi aniq ilmiy tafakkurni boshlab beruvchilardan. U filologiya sohasida ham qalam tebratib, hind she’riyati tuzilishiga oid tadqiqotlar, mumtoz arab she’riyati, Eron folklori namunalarining arab tiliga tarjimalarini yaratdi. Beruniy mamlakat ravnaqi fan ravnaqi bilan uzviy bog‘liq, deb bildi [4, 126-b.].

Beruniy hissiy bilishga alohida diqqat qaratadi. U shunday yozadi: «Bilim sohalari tobora rivojlanayotganda insonlar aql-zakovati unga qo‘shilib borishi bilan ular yanada ko‘payadi, uning belgisi insonlarning fanga intilishi, uni e‘zozlashi, fan kishilarini e‘zozlashidadir». Voqelikning noma’lum tamoyillarini bilish haqida: «Bilinishi lozim bo‘lgan barcha hodisalarning yo‘li borki, uning vositasida bilimlarga erishish mumkin», - deydi. Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» [1, 141-b.], deb nomlangan qomusiy kitobini to‘la ma’noda insoniyat tarixining o‘tgan 5 ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag‘ishlangan mumtoz qomusiy asar, deb baholash mumkin. Mazkur kitobda ulug‘ mutafakkir asar yozilishi jarayonida qo‘llagan usullari xususida so‘z yuritib, olib borgan ilmiy-falsafiy tadqiqotlari haqida shunday yozgan: «Mazkur asarni yozish

asnosida o‘zimga ishonch hosil qildimki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo‘li bilan haqiqiy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin emas. Bunga faqat “kitob ahli” va turli din arboblari, shu (e’tiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalari hamisha asos tutish bilan belgilanadi. So‘ngra ularning isbot uchun keltirgan so‘z va e’tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi» [1, 406-b.].

Falsafada olamni bilish yo‘llari, usullari ishlab chiqilgan va bu metodologiya (usullar haqidagi ta’limot)da o‘z ifodasini topgan. Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy falsafa inson va jamiyatni o‘rganish yo‘llari, usullari haqida bahs asosida yuritadi [5, 5-b.]. Abu Rayhon Beruniy dunyoning manzarasi evolyutsion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi. «Olamni idora qiluvchi manba – “tuzilish va buzilish”dan iborat ziddiyat, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi» [1, 46-b.].

Abu Rayhon Beruniy Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlarining falsafiy g‘oyalarini rivojlantirdi. Jumladan, o‘zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida insoniyat hayoti haqidagi masalani ilmiy asosda hal etishga harakat qildi. Jamiyat va kishilar hayotida geografik omilning ahamiyati, uning ijtimoiy hodisalarga ta’sirini ko‘rsatdi. Musulmon va hindlarning urf-odatidagi tafovutlarni geografik sharoit bilan izohladi, hatto tillar o‘rtasidagi tafovutlarni ham geografik omillar bilan bog‘ladi. Uning fikricha, falsafaga yo‘l borliqning chuqur tushunib yetishga imkon beradigan tabiatshunoslik fanlari orqali o‘tadi. Umuman olganda, Beruniy falsafani borliqning mohiyatini biladigan fan sifatidagi ta’rifga qo‘shiladi. Shuningdek, Abu Ma’shar al-Balxiyning «Tabiat hamma narsadan kuchliroqdir» [2, 99-b.], degan nuqtayi nazariga qo‘shilgan.

Abu Rayhon Beruniy o‘rta asr Sharq Uyg‘onishi sharoitida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos soldi, u tabiatshunoslikning turli sohalarida o‘z davri uchun taajjubga soluvchi shunday ilmiy va faraziy fikrlarni ilgari surdiki, ular bir necha asrlardan so‘ng Yevropa ilmida o‘z isbotini topdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Beruniy asarlarida uning tabiiy-ilmiy qarashlari bilan bog‘liq chuqur ijtimoiy-ilmiy-falsafiy mulohazalar, umumlashmalar ham o‘z ifodasini topgan. U Forobiy ilmiy-falsafiy ta’limotiga asoslanib, Allohni hamma narsaning birinchi

sababi, deb hisoblaydi. Uning tushunishicha, Xudo hamma narsaning yaratuvchisi ekanligi e'tirof qilinadi. Lekin Beruniy birinchi sababdan kelib chiqqan hamma narsaning rivojlanish va o'zgarish huquqini tabiatga beradi. Uning ta'limoticha, tabiatda hamma narsa tabiiy qonunlar asosida yaratiladi, tabiat o'zining tabiiy kuchiga ega bo'lib, shu kuch ta'sirida tabiatda to'xtovsiz harakat, o'zgarish, o'sish, rivojlanish, vujudga kelish, emirilish, halok bo'lish jarayonlari sodir bo'ladi. Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Beruniy o'z ilmiy-falsafiy qarashlarida deizmga yaqin pozitsiyada turgan. U moddiy dunyoning abadiyligi haqida gapiradi [6, 177-b.].

Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. U insonni eng sharaflı borlıq sifatida tushuntiradi. Inson faqat o'zi uchun yashamasligi, insonlar bir-birlariga yordam berishlari kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonlar o'rtasidagi tafovut ko'proq tashqi jihatdan mavjud bo'lib, ular ichki tuzilishi va tashkil topishi jihatidan umumiylikka ega.

Beruniy mamlakat ravnaqi, el-yurt farovonligi ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq, deb biladi. U: «Har bir olim o'z muhokamasida amaliyotga asoslanishi, o'z tadqiqotida aniq maqsadga ega bo'lishi, tinimsiz mehnat qilishi, xatolarni qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydırma, yuzakilikka qarshi kurash olib borishi zarur», deb yozgan. U mamlakatda xalqlar do'st, inoqlik, ittifoq bo'lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qattiq qoralaydi, kishilarni tinchlikka chaqiradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). XIX asrning o'rtalarida tabiatshunoslik fanlarida qilingan buyuk kashfiyotlar (evolyutsion nazariya, hujayra nazariyasi, energiyaning saqlanishi va o'zgarishi qonuni) falsafiy dunyoqarashning o'zgarishiga, jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga turtki berdi. Jamiyat g'oyat murakkab va ko'pqirrali hodisa bo'lib, muttasil ravishda o'zgarish va rivojlanish xususiyatiga ega. Juda qadim zamonlardanoq insoniyatning ulug' mutafakkirlari jamiyat mohiyatini bilish, insonning jamiyatdagi o'rni va rolini belgilashga harakat qilganlar. Turli tarixiy

davrlarda mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar jamiyatning kelib chiqishi va rivojlanishi to‘g‘risida muayyan bilim, tasavvurlar hosil qilishga imkon bergan.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy haqiqatning muayyan mezon bo‘lishi to‘g‘risida fikr yuritadi. U haqiqatga xilof, aniq tekshirilmagan, eshitishdan dillari nafratlanadigan, quloqlar tortiladigan va aqlga sig‘maydigan afsonalar, dalilsiz da’volarning asossiz ekanligini isbotlashdek murakkab muammoni tajriba va amaliyot orqali hal qilish mumkin, deb bilgan. Shu bilan birga, mantiqiy xulosalar ahamiyatining muhimligini tushunib, «sezgi orqali bilish» va «aqliy bilish» tushunchalarini birgalikda ko‘rishni o‘rgatgan ulug‘ olim, deyishga to‘la haqlimiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // «Xalq so‘zi», 2020-yil 30-dekabr.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. – Toshkent, 2022. – 73-b.Абу-р-Райхан Мухаммед ибн Ахмед ал-Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минералогия) // Перев. А. М. Беленицкого. Ленинград, 1963. – 235 с.
3. Булгаков П.Г. Беруни и его «Геодезия». - В кн.: Абу Рейхан Бируни. Избр. произведения: Т.3. Определение границ мест для уточнения расстояний между населенными пунктами [«Геодезия»] . Прим. перевод и примечания П.Г.Булгакова. - Ташкент: Фан, 1966. – 132 с.
4. Тарг С.М. Сила инерции // Физическая энциклопедия: [в 5 т.] Гл. редактор А.М.Прохоров. – Москва, 1994. – С. 126-138.
5. Karimov I., Valieva S., Tulyenova K. Ijtimoiy falsafa (uslubiy qo‘llanma). – Toshkent: Fan, 2008. – 5-b.
6. Masharipova G.K. Xorazm Ma‘mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma‘naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 177-b.
7. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература - Москва: Наука, 1995. – 54 с.